

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIJ TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIQIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
DAVLAT MUASSASALARIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	287
Xusanova Muxsina Kasimovna	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIY TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	
TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI SANOAT ZONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	357
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA TRANSCHEGARAVIY SUG'URTA VA DAVLAT KAFOLATLARI MEXANIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	364
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
20GL MARKALI PO'LATDAN TAYYORLANADIGAN YUK VAGONI YON RAMASI QUYMASIDA KIRISHUV G'OVAKLAR HOSIL BO'LISH QONUNIYATLARINI TADQIQ QILISH	368
Chorshanbiyeva Lobar, Turaxodjayev Nodir, Nuriddinov Otabek, Kenjayev Elshod	
O'ZGARUVCHAN TEZLIKLI, OG'MA QATOR QOZIQLI, SINUSOIDAL PLANKALI BARABANLARDA PAXTA BO'LAGINING ZARBALI TA'SIRI MODELI.....	374
Djurayev Anvar, Qorachayeva Oltinoy	
SANOAT KORXONALARINI ESG ASOSIDA JARAYONLI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	379
Azimova Maxfuza Rashidovna	
TURIZM SOHASIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHGA QARATILGAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH	386
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	391
Sarsengalieva Albina, Sarsenbaev Bakhitjan	
DETERMINANTS OF THE SHADOW ECONOMY: A CONCEPTUAL CLASSIFICATION AND CROSS-COUNTRY EVIDENCE	395
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
ELEKTRON TIJORAT ORQALI CHAKANA SAVDONI OSHIRISH YO'LLARI (POYABZAL SANOATI MISOLIDA)	403
Makhmudova Munisaxon Abbos qizi	
BYUDJET TASHKILOTLARI AUDITIDA AUDITORLIK TANLAMASINING IQTISODIY MOHIYATI VA TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Muqumov Jasur Bosimovich	
BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	415
Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TANNARXNI ANIQLASHNING NAZARIY MASALALARI.....	420
Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich	



DAVLAT TASHKILOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISHNING PROAKTIV TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI TAHLILI	424
Xurshida Maxmadaminova	
ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA MULTIMODAL TASHISHLAR VA LOGISTIKA TIZIMLARI SOHASIDAGI ILMIY TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARINI ANIQLASH	430
Zohidov Muhiddin G'ofurjon o'g'li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AGROBIZNESNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	436
Noraliyeva Gavhar Murodqulovna, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA JALB ETILGAN INVESTITSİYALARNING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI EKONOMETRIK TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	441
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARI	447
Xamdamov Amriddin, Madig'oyibov Jamshid	
РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЖИДКОГО И ТВЁРДОГО АНТИГОЛОЛЁДНОГО РЕАГЕНТА ИЗ МЕСТНЫХ СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ	452
Дадаходжаев Абдулла, Ахмедов Мансур, Гуро Виталий	
АНАЛИЗ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТЕХНИКИ ДЛЯ УПЛОТНЕНИЯ ДАМБ	457
Шомирзаев Эргаш Хурсанович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISH TIZIMINING ROLI	465
Zakirov Mir Timur Zakir o'g'li	
HUDUDIY MEHNAT BOZORINI RAQAMLI BOSHQARISH: ISH O'RNI SIFATI PASPORTI VA ELEKTRON ISH O'RINLARI XARITASI ARHITEKTURASI.....	470
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI XIZMATLARIDA INNOVATSIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI VA ULARNI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	476
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
HUDUDLARDA QURILISH XIZMATLARI SOHASINI RIVOJLANISHINING IQTISODIY HOLATI TAHLILI .	483
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ОЦЕНКИ И РАЗВИТИЯ ПОТЕНЦИАЛА РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И ХОЗЯЙСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ЕГО ТРАНСФОРМАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	491
Хусаинов Равшан Рахимович	
THE COMPOSITION OF SOLID PROPELLANT IN MODEL ROCKETS AND ITS EFFECT ON FLIGHT PERFORMANCE: A COMPARATIVE STUDY OF BIOMASS CATALYSIS AND GRAIN GEOMETRY	502
Karimov Mustafo, Berdiyev Usmon	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH DARAJASINI BAHOLASHNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA METODIK YONDASHUVLARINING BUGUNGI HOLATI	508
Muxtarov Botir Abdusattarovich	

O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH DARAJASINI BAHOLASHNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA METODIK YONDASHUVLARINING BUGUNGI HOLATI

Muxtarov Botir Abdusattarovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining
Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish darajasini baholashga xizmat qiluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, xizmat turlarining tarkibi, hududiy taqsimot ulushi, Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI), mavsumiylik koeffitsiyenti va daromadlar diversifikatsiyasi hamda ularni baholashning metodik yondashuvlari 2015–2025-yillar kesimida tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qilaylik!" dasturi doirasidagi hisobotlar va ilmiy tadqiqotlar asosida deskriptiv statistika, dinamik qatorlar tahlili hamda tarkibiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari ichki sayohatlar soni 2015-yildagi 1,9 mln tadan 2025-yilda 25,7 mln tagacha oshganini ko'rsatdi. Ichki turizm xizmatlarining diversifikatsiya darajasi o'rtacha bo'lib, Herfindahl–Hirschman indeksi 2200–2800 oralig'ida shakllangan. Shu bilan birga, joylashtirish xizmatlari hamda markaziy hududlarning ustun mavqeyi saqlanib qolgan. Amaldagi metodik yondashuvlar, asosan, deskriptiv xususiyatga ega bo'lib, Herfindahl–Hirschman va Gini indeksleri kabi zamonaviy baholash vositalarini kengroq qo'llash sohani kompleks tahlil qilish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Maqolada ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va sohani barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ichki turizm, diversifikatsiya, turizm xizmatlari, iqtisodiy ko'rsatkichlar, Herfindahl–Hirschman indeksi, mavsumiylik koeffitsiyenti, metodik yondashuvlar.

Abstract. This article analyzes the economic indicators and methodological approaches used to assess the diversification level of domestic tourism services in the Republic of Uzbekistan during 2015–2025. The indicators examined include the structure of service types, regional distribution shares, the Herfindahl–Hirschman Index (HHI), the seasonality coefficient, and revenue diversification. The study applies descriptive statistics, time-series analysis, and structural analysis based on data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, reports prepared under the "Let's Travel Around Uzbekistan!" program, and relevant academic studies. The findings indicate that the number of domestic trips increased from 1.9 million in 2015 to 25.7 million in 2025. The diversification level of domestic tourism services remained moderate, with the Herfindahl–Hirschman Index ranging from 2,200 to 2,800. Nevertheless, accommodation services and central regions continued to hold dominant positions. The existing methodological approaches are primarily descriptive, while modern assessment tools, such as the Herfindahl–Hirschman and Gini indices, are not applied sufficiently. The article develops scientific and practical recommendations aimed at diversifying domestic tourism services and ensuring the sustainable development of the sector.

Keywords: domestic tourism, diversification, tourism services, economic indicators, Herfindahl–Hirschman Index, seasonality coefficient, methodological approaches, Uzbekistan.

Аннотация. В статье анализируются экономические показатели и методические подходы, применяемые для оценки уровня диверсификации услуг внутреннего туризма в Республике Узбекистан в 2015–2025 годах. К рассматриваемым показателям относятся структура видов услуг, доля их регионального распределения, индекс Херфиндаля–Хиршмана (HHI), коэффициент сезонности и диверсификация доходов. В исследовании использованы методы описательной статистики, анализа динамических рядов и структурного анализа на основе данных Национального статистического комитета Республики Узбекистан, отчетов, подготовленных в рамках программы «Путешествуем по Узбекистану!», а также соответствующих научных исследований. Результаты исследования показывают, что количество внутренних поездок увеличилось с 1,9 млн в 2015 году до 25,7 млн в 2025 году. Уровень диверсификации услуг внутреннего туризма оценивается как умеренный, при этом значение индекса Херфиндаля–Хиршмана находилось в диапазоне 2200–2800. Вместе с тем сохраняется преобладающее положение услуг размещения и центральных регионов. Установлено, что применяемые методические подходы носят преимущественно описательный характер, а современные инструменты оценки, включая индексы Херфиндаля–Хиршмана и Джини, используются недостаточно. В статье разработаны научно-практические



рекомендации, направленные на диверсификацию услуг внутреннего туризма и обеспечение устойчивого развития отрасли.

Ключевые слова: внутренний туризм, диверсификация, туристские услуги, экономические показатели, индекс Херфиндала–Хиршмана, коэффициент сезонности, методические подходы, Узбекистан.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish xizmat turlarini, jumladan, joylashtirish, ovqatlanish, transport, ekologik, qishloq, sarguzasht va ziyorat turizmi xizmatlarini kengaytirish, hududiy qamrovni oshirish hamda mavsumiylik darajasini kamaytirishni nazarda tutadi. Mazkur jarayon nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yalpi ichki mahsulotga qo'shiladigan hissani ko'paytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda mahalliy infratuzilmani izchil rivojlantirishga ham xizmat qiladi [1; 2].

2015–2025-yillarda amalga oshirilgan turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, xususan, 2022-yildan boshlab "O'zbekiston bo'ylab sayohat qilaylik!" milliy dasturining amalga oshirilishi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son qarori ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayoniga katta turtki berdi¹. 2020–2021-yillarda pandemiya ta'sirida ichki turizm ko'rsatkichlarida vaqtinchalik pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2022-yildan boshlab ichki sayohatlar sonida jadal tiklanish va barqaror o'sish tendensiyasi shakllandi. Jumladan, 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida ichki sayohatlar soni 23,7 mln tani tashkil etdi [3; 4].

Mazkur maqolada ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish darajasini baholashga doir iqtisodiy ko'rsatkichlar va metodik yondashuvlarning bugungi holati 2015–2025-yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ichki turizm bozorining tarkibiy rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, mavjud metodik yondashuvlarni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash hamda sohani yanada barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish masalalari global miqyosda BMT Turizm tashkiloti (UN Tourism) hamda Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) hisobotlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Mazkur manbalarda turizm xizmatlari tarkibini kengaytirish, hududiy qamrovni oshirish, mavsumiylik ta'sirini kamaytirish va turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston sharoitida Z. B. Kabilova va boshqa tadqiqotchilar ichki turizmning iqtisodiy ahamiyatini yoritib, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish orqali hududlararo rivojlanish muvozanatini ta'minlash imkoniyatlarini asoslab bergan [6]. A. I. Yuldoshev esa Aydar–Arnasoy ko'llari hududi misolida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning nazariy asoslari hamda uning hududiy turizm samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilgan [7].

Hassanov va boshqa tadqiqotchilar ichki turizmni rivojlantirishda infratuzilmani takomillashtirish, malakali kadrlar salohiyatini oshirish va mavsumiylik ta'sirini kamaytirish bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlarni o'rgangan. Shuningdek, ular turizm xizmatlari tarkibidagi jamlanish darajasini baholash uchun Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) kabi zamonaviy iqtisodiy vositalardan foydalanishni tavsiya etgan [8]. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va WTTC hisobotlarida ichki turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shayotgan hissasi 2–3 foiz, ushbu sohada yaratilgan ish o'rinlari soni esa 50 mingdan ortiq ekani qayd etilgan [9].

Pandemiyadan keyingi davrda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qilaylik!" dasturining amalga oshirilishi ichki turistik oqimlarning tiklanishi va jadal rivojlanishiga xizmat qildi. Natijada 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida ichki sayohatlar soni 23,7 mln taga yetib, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayoni yanada faollashdi [3].

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda ichki turizm rivojlanishining umumiy tendensiyalari, iqtisodiy ahamiyati va hududiy xususiyatlari keng yoritilgan. Shu bilan birga, 2015–2025-yillardagi uzoq muddatli dinamikani hamda Herfindahl–Hirschman indeksi kabi ko'rsatkichlar asosida turizm xizmatlarining tarkibiy diversifikatsiyasini kompleks baholashga bo'lgan ilmiy ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola aynan ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni boyitish va mavjud metodik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan [10].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.04.2022 yildagi PQ-232-son <https://lex.uz/uz/docs/-5991928>

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikkilamchi ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2015–2025-yillarga oid turizm statistikasi, jumladan, ichki sayohatlar, joylashtirish vositalari va turistik firmalar faoliyatiga doir ma'lumotlar, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qilaylik!" dasturi doirasidagi hisobotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–232-son qarori hamda sohaga oid ilmiy maqolalardan foydalanildi [1; 4; 11]².

Tadqiqot jarayonida quyidagi tahlil usullari qo'llanildi:

- deskriptiv statistika va dinamik qatorlar tahlili asosida ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari hamda o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) baholandi;
- tarkibiy tahlil yordamida turizm xizmatlarining turlari va ularning hududlar kesimidagi ulushlari o'rganildi;
- xizmatlar jamlanishi va diversifikatsiyasi darajasini baholash uchun Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) hisoblandi:

$$HHI = \sum (S_i)^2,$$

- bunda S_i — har bir xizmat turi yoki hududning umumiy hajmdagi ulushi. HHI qiymatining 1500 dan past bo'lishi diversifikatsiya darajasining yuqoriligini ifodalaydi;
- turistik oqimlarning yil davomida taqsimlanishini aniqlash uchun mavsumiylik koeffitsiyenti, turizm faoliyatining iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ta'sirini baholash uchun esa multiplikator samarasi qo'llanildi.

Tadqiqot ma'lumotlari 2015–2025-yillarni qamrab oladi. Ichki turizmdan olinadigan daromadlarni alohida statistik ko'rsatkich sifatida shakllantirish kelgusida sohaning iqtisodiy samaradorligini yanada chuqur baholash imkonini beradi. [4]. Mazkur yondashuv mavjud statistik ma'lumotlar asosida ichki turizm xizmatlarining rivojlanish dinamikasi va diversifikatsiya darajasini kompleks baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Ichki turistik sayohatlar dinamikasi va diversifikatsiya ko'rsatkichlari

2015–2025-yillarda O'zbekistonda ichki turistik sayohatlar sonida, pandemiya davridagi vaqtinchalik pasayishni hisobga olmaganda, barqaror va jadal o'sish tendensiyasi kuzatildi. 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qilaylik!" dasturi hisobotlari asosida shakllantirilgan ma'lumotlar keltirilgan [1; 3; 50] (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda ichki turistik sayohatlar soni va yillik o'sish sur'ati, 2015–2025-yillar³

Yil	Ichki sayohatlar soni (mln)	O'sish sur'ati (%)	CAGR (kumulyativ)	Izoh
2015	1,94	-	-	Barqaror boshlanish
2016	2,03	+4,6	-	Islahotlar ta'siri
2017	2,15	+5,9	-	Vizalar soddalashtirilishi
2018	2,26	+5,1	-	Infratuzilma o'sishi
2019	2,48	+9,7	-	Pre-COVID cho'qqisi
2020	1,07	-56,9	-	Pandemiya pasayishi
2021	2,16	+102,3	-	Qisman tiklanish
2022	11,40	+427,1	-	Dastur boshlanishi
2023	15,00	+31,6	-	Dastur kengayishi
2024	22,70	+51,3	-	Rekord ko'rsatkich
2025	25,70 (taxminiy, 11 oyda 23,7)	+13,2	31,8% (2015–2025)	Dastur samarasi [3]

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2015–2025-yillarda ichki turistik sayohatlar sonining o'rtacha yillik murakkab o'sish sur'ati — CAGR quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$CAGR = (25,70 / 1,94)^{1/10} - 1 = 29,5 \text{ foiz.}$$

Mazkur ko'rsatkich ichki turizm bozorining uzoq muddatli rivojlanish sur'ati yuqori ekanini namoyon etadi. Ayniqsa, 2022-yildan boshlab ichki sayohatlar sonining keskin ko'payishi davlat dasturlari, transport

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.04.2022 yildagi PQ-232-son <https://lex.uz/uz/docs/-5991928>

³ Izoh: 2025-yil ko'rsatkichi baholangan bo'lib, yanvar–noyabr oylarida ichki sayohatlar soni 23,7 mln tani tashkil etgan.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qilaylik!" dasturi hisobotlari va muallif hisob-kitoblari [1; 3; 50].



imkoniyatlarining kengayishi, turistik infratuzilmaning rivojlanishi hamda aholining ichki sayohatlarga bo'lgan qiziqishi ortgani bilan izohlanadi.

2. Xizmat turlari bo'yicha tarkibiy diversifikatsiya

Ichki turizm xizmatlari tarkibida joylashtirish xizmatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, gastronomik, ekologik, qishloq, sarguzasht va ziyorat turizmi kabi yangi yo'nalishlarning ulushi izchil oshib bormoqda. Bu esa xizmatlar tarkibining bosqichma-bosqich muvozanatlashayotganini ko'rsatadi [7; 50] (2-jadval).

2-jadval

Ichki turizm xizmatlarining tarkibiy taqsimoti, 2019 va 2025-yillar⁴

Xizmat turi	2019 yil ulushi (%)	2025 yil ulushi (%)	O'zgarish (%)	Izoh
Joylashtirish (mehmonxona va shunga o'xshash)	55	42	-13	Asosiy ulush kamaymoqda
Ovqatlanish va gastronomiya	20	24	+4	Mahalliy taomlar rivoji
Transport va logistika	12	16	+4	Ichki reyslar o'sishi
Ekskursiya va madaniy/ziyosat turizmi	8	11	+3	Meros yo'nalishlari
Ekologik, qishloq va sarguzasht	3	5	+2	Yangi yo'nalishlar [50]
Boshqa (ta'limiy, sog'lomlashtirish, biznes)	2	2	0	Potensial yuqori

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, joylashtirish xizmatlarining umumiy tarkibdagi ulushi 2019-yildagi 55 foizdan 2025-yilda 42 foizgacha kamaygan. Bu holat joylashtirish xizmatlari hajmining qisqarganini emas, balki boshqa turistik xizmatlarning jadal rivojlanishi natijasida bozor tarkibi yanada muvozanatlashganini anglatadi.

Ovqatlanish va gastronomiya xizmatlari ulushi 4 foiz punktga, transport va logistika xizmatlari ulushi 4 foiz punktga, ekskursiya, madaniy va ziyorat turizmi ulushi esa 3 foiz punktga oshgan. Ekologik, qishloq va sarguzasht turizmi ulushining 3 foizdan 5 foizgacha ko'payishi ichki turizmga yangi yo'nalishlar shakllanayotganini ko'rsatadi.

3. Hududiy diversifikatsiya va Herfindahl–Hirschman indeksi

Ichki turistik xizmatlarning hududiy taqsimotida Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Samarqand hamda Buxoro viloyatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarning umumiy turistik oqimdagi ulushi ham bosqichma-bosqich oshib bormoqda [8; 51] (3-jadval).

3-jadval

Ichki turizm xizmatlarining hududiy taqsimoti va HHI hisob-kitobi, 2019 va 2025-yillar⁵

Mintaqa	2019 yil ulushi (%)	2025 yil ulushi (%)	HHI 2019	HHI 2025
Toshkent sh./vil.	35	28	-	-
Samarqand	20	18	-	-
Buxoro	15	14	-	-
Farg'ona vodiysi	10	13	-	-
Qoraqalpog'iston va boshqalar	20	27	-	-
Umumiy HHI	-	-	2850	2380

Herfindahl–Hirschman indeksi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$HHI = \sum (S_i^2),$$

bunda S_i — har bir hududning umumiy turistik xizmatlar hajmidagi foiz hisobidagi ulushi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, hududiy HHI ko'rsatkichi 2019-yildagi 2350 balldan 2025-yilda 2202 ballgacha kamaygan. Ushbu natija ichki turizm xizmatlarining hududiy taqsimoti tobora muvozanatlashayotganini va diversifikatsiya darajasi oshayotganini anglatadi. HHI qiymatining 1500–2500 oralig'ida bo'lishi hududiy jamlanish darajasi o'rtacha ekanini ko'rsatadi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatining umumiy ulushi 35 foizdan 28 foizgacha kamaygan bo'lsa,

4 **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari va muallif hisob-kitoblari [11; 50].

5 **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining joylashtirish vositalari hududiy taqsimotiga oid ma'lumotlari va muallif hisob-kitoblari [51].

Farg'ona vodiysi ulushi 10 foizdan 13 foizgacha, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarning ulushi esa 20 foizdan 27 foizgacha oshgan. Bu hududiy turizm salohiyatidan foydalanish ko'lami kengayib borayotganini ifodalaydi.

Kelgusida HHI ko'rsatkichini barcha hududlar bo'yicha alohida hisoblash hududiy diversifikatsiya darajasini yanada aniq baholash imkonini beradi.

4. Boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar

2015–2025-yillarda O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi ham jadallashdi. Joylashtirish vositalari soni 2015-yildagi 850 tadan 2025-yilda 6500 tadan ortiq darajaga yetdi. Ularning umumiy sig'imi esa qariyb 161 ming o'rinni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkichlar mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, hostellar, dam olish maskanlari va boshqa joylashtirish vositalari tarmog'i sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi.

Mavjud baholashlarga ko'ra, turizm xizmatlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shayotgan hisssasi 2,5–3 foizni tashkil etadi [9]. Turizm infratuzilmasining rivojlanishi transport, savdo, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohalarining faollashishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

5. Metodik yondashuvlarning bugungi holati

O'zbekistonda ichki turizm xizmatlarini baholashda deskriptiv statistika, dinamik qatorlar tahlili va tarkibiy tahlil usullari keng qo'llanilmoqda. Mazkur yondashuvlar ichki sayohatlar soni, turistik xizmatlar hajmi, joylashtirish vositalari va hududiy taqsimotdagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, baholash metodologiyasini yanada rivojlantirish maqsadida Herfindahl–Hirschman va Gini indeksleri, tarmoqlararo balans modellari, ekonometrik tahlil hamda geografik axborot tizimlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq. “E-mehmon” elektron tizimi, geografik axborot tizimlari va boshqa raqamli platformalar orqali shakllanadigan ma'lumotlarni yagona tahliliy bazaga integratsiya qilish ichki turizmning hududiy va mavsumiy xususiyatlarini tezkor baholash imkonini beradi [10; 50].

Statistik ma'lumotlarning qamrovini kengaytirish, turizm daromadlarini ichki va tashqi turizm yo'nalishlari bo'yicha alohida hisobga olish hamda mavsumiy ko'rsatkichlarni muntazam e'lon qilish baholash natijalarining aniqligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish darajasini baholashning iqtisodiy ko'rsatkichlari va metodik yondashuvlarini o'rganish natijalari 2015–2025-yillarda ichki turizm bozori jadal rivojlanganini hamda uning tarkibiy tuzilishi bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini ko'rsatdi. Tadqiqot davrida ichki sayohatlar soni 2015-yildagi 1,94 mln tadan 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida 23,7 mln taga yetdi. 2025-yil yakuni bo'yicha baholangan 25,7 mln ta ichki sayohat ko'rsatkichi asosida o'rtacha yillik murakkab o'sish sur'ati — CAGR 29,5 foizni tashkil etdi. Mazkur natija 2020–2021-yillardagi pandemiya ta'siridan keyin 2022-yildan boshlab ichki turizmning jadal tiklanishi va barqaror o'sish bosqichiga o'tganini ifodalaydi. Ushbu o'sishga davlat dasturlarining izchil amalga oshirilishi, turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar, keshbek mexanizmlarining joriy etilishi va milliy turistik dasturlarning faollashuvi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tarkibiy tahlil natijalariga ko'ra, ichki turizm xizmatlarining diversifikatsiya darajasi o'rtacha holatda shakllangan. Joylashtirish xizmatlarining, jumladan, mehmonxonalar, dam olish maskanlari va hostellarning umumiy xizmatlar tarkibidagi ulushi 2019-yildagi 55 foizdan 2025-yilda 42 foizgacha kamaygan bo'lsa-da, mazkur yo'nalish eng yirik segment sifatidagi mavqeyini saqlab qolmoqda. Ushbu pasayish joylashtirish xizmatlari hajmining qisqarganini emas, balki boshqa xizmat turlarining tezroq rivojlanishi natijasida bozor tarkibi tobora muvozanatlashayotganini anglatadi.

2025-yilda ovqatlanish va gastronomiya xizmatlarining ulushi 24 foizni, transport va logistika xizmatlarining ulushi 16 foizni, madaniy va ziyorat turizmi xizmatlarining ulushi 11 foizni, ekologik, qishloq va sarguzasht turizmi xizmatlarining ulushi esa 5 foizni tashkil etdi. “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog'i”, “Turizm ovuli”, “Tabarruk ziyorat”, agroturizm va ekoturizm kabi yangi turistik mahsulotlarning ommalashib borishi ichki turizm xizmatlari tarkibining kengayayotganini ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishlarning bozor ulushini yanada oshirish uchun ularni hududlarning tabiiy, tarixiy va madaniy salohiyati bilan uyg'un holda rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Hududiy jihatdan Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Samarqand hamda Buxoro viloyatlari yetakchi o'rinni egallamoqda. Shu bilan birga, Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy va tog'li hududlarning ichki turistik oqimdagi ulushi ham izchil oshib bormoqda. Herfindahl–Hirschman indeksining 2019-yildagi 2350 balldan 2025-yilda 2202 ballgacha kamayishi hududiy taqsimotning tobora muvozanatlashayotganini va diversifikatsiya darajasi yaxshilanayotganini tasdiqlaydi. Markaziy turistik hududlarning shakllangan salohiyati bilan bir qatorda, boshqa hududlarning imkoniyatlarini faol rivojlantirish hududiy diversifikatsiyani yanada mustahkamlaydi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili turizm xizmatlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shayotgan hisssasi



2,5–3 foiz atrofida ekanini, sohada 50 mingdan ortiq ish o'ri yaratilganini va turizmning hududiy infratuzilmani rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. 2025-yilda joylashtirish vositalari sonining 6861 taga, ulardagi umumiy o'rinlar sonining esa 184 mingga yetishi turizm infratuzilmasi imkoniyatlari izchil kengayib borayotganini ifodalaydi.

Ichki turizmning rivojlanishida mavsumiylik omilining ta'siri saqlanib qolmoqda. Turistik sayohatlarning asosiy qismi bahor va yoz oylariga to'g'ri keladi, kuz va qish mavsumlarida yangi turistik xizmatlarni rivojlantirish orqali yil davomida barqaror talabni shakllantirish imkoniyati mavjud. Mazkur holat qishki, sog'lomlashtirish, ta'limiy, gastronomik, sport va biznes turizmi xizmatlarini faol rivojlantirish orqali yil davomida barqaror turistik talabni shakllantirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Amaldagi metodik yondashuvlar, asosan, deskriptiv statistika, dinamik qatorlar tahlili va tarkibiy taqsimot ko'rsatkichlariga asoslanadi. Ushbu usullar turistik oqimlarning umumiy dinamikasi va xizmatlar tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini bersa-da, amaldagi metodik yondashuvlarni mazkur indekslar va iqtisodiy modellar bilan boyitish baholash natijalarining ilmiy aniqligini oshiradi.

Turizm statistikasi IRTS–2008 xalqaro tavsiyalariga bosqichma-bosqich moslashtirilayotgan bo'lsa-da, ichki turizmdan olinadigan daromadlar, turistlarning xarajatlari, xizmat turlari va hududiy turistik oqimlarga oid ma'lumotlarni alohida shakllantirish metodik tahlil imkoniyatlarini yanada oshiradi. "E-mehmon" axborot tizimi, geografik axborot tizimlari, mobil ilovalar va boshqa raqamli platformalarda shakllanadigan ma'lumotlarni yagona tahliliy bazaga integratsiya qilish sohani tezkor va aniq baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari "O'zbekiston — 2030" strategiyasi hamda ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari doirasida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish darajasini yanada oshirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Turizm statistikasini takomillashtirish. Ichki turizm xizmatlari bo'yicha daromadlar, xarajatlar, turistlarning o'rtacha sarfi, xizmat turlarining ulushi va hududiy taqsimotiga oid ko'rsatkichlarni O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan muntazam hisoblash hamda ochiq e'lon qilish tizimini rivojlantirish lozim.

Indeksli baholash usullarini keng joriy etish. Xizmat turlari va hududlar kesimida Herfindahl–Hirschman, Gini va entropiya indeksleri hamda mavsumiylik koeffitsiyentini har yili hisoblash amaliyotini yo'lga qo'yish diversifikatsiya darajasini obyektiv baholash imkonini beradi.

Hududiy diversifikatsiyani kuchaytirish. Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Jizzax va tog'li hududlarda ekologik, agro, etnografik, sport va sarguzasht turizmini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus investitsiya dasturlarini amalga oshirish zarur. "Turizm qishlog'i", "Turizm mahallasi" va "Turizm ovuli" loyihalarini yangi hududlarga kengaytirish maqsadga muvofiq.

Raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish. Onlayn bron qilish tizimlari, "E-mehmon" platformasi, GIS-xaritalar, katta ma'lumotlar texnologiyalari va mobil ilovalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish lozim. Virtual turlar, raqamli ekskursiyalar va elektron turistik yo'nalishlarni ommalashtirish ichki turistlar uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

Kadrlar salohiyati va xizmatlar sifatini oshirish. Turizm yo'nalishida faoliyat yurituvchi oliy ta'lim muassasalari, professional ta'lim tashkilotlari va turizm subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Xizmat ko'rsatish sifatini ISO, Green Key va boshqa xalqaro standartlarga moslashtirish turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Mavsumiylik ta'sirini kamaytirish. Qishki turizm, chang'i turizmi, termal va sog'lomlashtirish xizmatlari, ta'limiy turizm, konferensiya va biznes turizmini rivojlantirish orqali turistik talabning yil davomida nisbatan teng taqsimlanishiga erishish mumkin.

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish. Xususiy turizm subyektlariga soliq, kredit, infratuzilma va maslahat ko'magini kengaytirish, istiqbolli loyihalarni davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish lozim. Turkiya, Gruziya va boshqa davlatlarning ilg'or tajribalarini milliy sharoitga moslashtirish ham samarali natija beradi.

Mazkur choralarni izchil amalga oshirish natijasida ichki turizm xizmatlarining diversifikatsiya darajasi sezilarli ravishda oshib, bozor nafaqat hajm, balki sifat, raqobatbardoshlik va barqarorlik jihatidan ham rivojlanadi. Ichki turizm mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biriga aylanib, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muvozanatini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlarning qamrovi va ichki turizm daromadlariga oid alohida statistikaning cheklanganligi kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi ilmiy yo'nalishlarni belgilaydi. Keyingi tadqiqotlarda ichki turizmning bandlik, aholi daromadlari, madaniy merosni asrash, ekologik barqarorlik va aholining sayohat madaniyatiga ta'sirini ekonometrik hamda sotsiologik usullar asosida chuqur o'rganish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, O'zbekistonda ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish jarayoni ijobiy rivojlanish yo'nalishiga ega. Izchil davlat siyosati, samarali boshqaruv mexanizmlari, raqamli texnologiyalar va hududiy turizm salohiyatidan oqilona foydalanish orqali yaqin istiqbolda diversifikatsiya darajasini yanada yuqori



bosqichga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Turizm va dam olish statistikasi: 2015–2025-yillar*. — Stat.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/uz/docs/-5991928>
3. “O'zbekiston bo'ylab sayohat qilaylik!” dasturi hisoboti. — 2025-yil, yanvar–noyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Turizm sohasiga oid press-relizlar*. — 2024–2025-yillar. — Stat.uz.
5. United Nations World Tourism Organization. *Tourism Towards 2030: Global Overview*. — Madrid: UNWTO, 2023.
6. Kabilova, Z. B. Ichki turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari // *Universal Scientific Research*. — 2024.
7. Yuldoshev, A. I. Hududiy turizm samaradorligini oshirishda xizmatlarni diversifikatsiya qilish // *CyberLeninka*. — 2026.
8. Hassanov va boshqalar. *O'zbekistonda ichki turizm: imkoniyatlar va muammolar*. — ResearchGate, 2025.
9. World Travel & Tourism Council. *Uzbekistan Economic Impact Report 2025*. — London: WTTC, 2025.
10. *Development of Domestic Tourism in Uzbekistan // Genius Journals*. — 2025.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Tourism and Recreation Development in the Republic of Uzbekistan for 2024*. — Toshkent, 2025.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100